

IQTISODIY HAMKORLIK VA MINTAQAVIY INTEGRATSIYA ISTIQBOLLARI: TURKIY DAVLATLAR MISOLIDA TAHLIL

Muxammadsoyib Abduxokimovich TOSHPO‘LATOV

o‘qituvchi

Andijon davlat texnika instituti

Andijon, O‘zbekiston

muxammadsoyib012@gmail.com

орсид 0009-0001-3423-0993

Annotatsiya

Maqolada XXI asr sharoitida mintaqaviy integratsiya jarayonlarining global iqtisodiyotdagi o‘rni tahlil qilingan. Turkiy davlatlar, xususan O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Turkiya va Ozarbayjon o‘rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning nazariy-metodologik asoslari, amaliy holati va rivojlanish istiqbollari o‘rganilgan. Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida savdo, investitsiya, transport-logistika, raqamli iqtisodiyot va yashil energetika sohalaridagi hamkorlikning ahamiyati ochib berilgan. Mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqilgan.

Tayanch so‘zlar: mintaqaviy integratsiya, turkiy davlatlar, iqtisodiy hamkorlik, savdo aylanmasi, investitsiya, raqamli iqtisodiyot, yashil iqtisodiyot.

ПЕРСПЕКТИВЫ ЭКОНОМИЧЕСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА И РЕГИОНАЛЬНОЙ ИНТЕГРАЦИИ: АНАЛИЗ НА ПРИМЕРЕ ТЮРКСКИХ ГОСУДАРСТВ

Мухаммадсайиб Абдухакимович ТАШПУЛАТОВ

преподаватель

Андижанский государственный технический институт

Андижан, Узбекистан

Аннотация

В статье проанализирована роль процессов региональной интеграции в глобальной экономике XXI века. Изучены теоретические и методологические основы, практическое состояние и перспективы развития экономического сотрудничества между тюркскими государствами, в частности Узбекистаном, Казахстаном, Кыргызстаном, Туркменистаном, Турцией и Азербайджаном. Выявлена важность сотрудничества в сферах торговли, инвестиций, транспорта и логистики, цифровой экономики и зеленой энергетики в рамках Организации тюркских государств. Определены существующие проблемы и разработаны научно обоснованные предложения по их устранению.

Ключевые слова: региональная интеграция, тюркские государства, экономическое сотрудничество, товарооборот, инвестиции, цифровая экономика, зеленая экономика.

XXI asrda jahon iqtisodiyotida globallashtirish va mintaqaviylashtirish jarayonlari o'zaro uyg'un holda rivojlanmoqda. Xalqaro raqobatning kuchayishi, resurslardan samarali foydalanish zarurati va texnologik inqiloblar milliy iqtisodiyotlarning yakka holda barqaror rivojlanish imkoniyatlarini cheklamoqda. Shu bois mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy integratsiya barqaror iqtisodiy o'sish, siyosiy barqarorlik va ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlovchi muhim omilga aylanmoqda. Mintaqaviy integratsiya jarayonlari milliy iqtisodiyotlarning o'zaro bog'lanishi, savdo to'siqlarining qisqarishi, kapital, mehnat va texnologiyalar erkin harakati asosida yagona iqtisodiy makon yaratishni nazarda tutadi.

Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) asta-sekin yangi turdagi noyob platforma – ishonch va ijodkorlik makoni sifatida shakllanmoqda. Birlashish maqsadi "hech kimga qarshi" emas, balki umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va barqarorlik maqsadiga qaratilgan.

Turkiy davlatlar tashkiloti mamlakatlari o'zaro hurmat va manfaatlarga asoslangan manfaatlar muvozanatini saqlash va integratsiya tashabbuslarini ilgari surish qobiliyatini namoyish etmoqda. Asosiy maqsad muvaffaqiyatlarni institutsionalizatsiya qilishdir, shuningdek yagona qaror qabul qilish mexanizmlarini ishlab chiqish, iqtisodiy va gumanitar hamkorlikni kengaytirish va tashqi mintaqalar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlashdan iboratdir.

Bugungi kunda TDT XXI asrda hamkorlik modellaridan biriga aylanib bormoqda, bunda mintaqaviy strategik sheriklik alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, turkiy davlatlarning integratsiyasi taraqqiyot va hamkorlik yo'lidir.

Turkiy davlatlar tashkiloti harbiy yoki siyosiy blok emas, balki iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, transport va logistika yo'nalishlarini rivojlantirish va gumanitar hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan ko'p tomonlama hamkorlik platformasidir. Asosiy maqsad turkiy davlatlarning barqaror rivojlanishiga ko'maklashish va mintaqalar xalqlari o'rtasida o'zaro tushunishni mustahkamlashdir.

So‘nggi yillarda Turkiy xalqlarning TDT faoliyatiga xalqaro miqyosda qiziqish ortib bormoqda, bu turkiy davlatlarning mintaqaviy barqarorlikni, Yevroosiyo transport aloqalarini va energiya xavfsizligini ta'minlashdagi roli bilan bog'liq.

Turkiy davlatlar o'rtasidagi hamkorlik tobora amaliy ijobiy natijalarga olib kelmoqda, asosan transport va logistika sohalarida yanada jadal rivojlanish kuzatilmoqda. Turkiy xalqlarning Birlashgan hududlarining geografik joylashuvi Sharq va G'arbni, Shimol va Janubni bog'laydigan noyob Yevroosiyo makonini yaratadi.

Dengizga chiqish imkoni bo'lmagan O'zbekiston uchun turkiy davlatlar bilan transport va logistika aloqalarini rivojlantirish strategik ustuvor vazifa bo'lib, eksport yo'llarini diversifikatsiya qilishni va iqtisodiy mustaqillikni mustahkamlashni ta'minlaydi [1].

Jahon tajribasida Yevropa Ittifoqi, ASEAN va Afrika Ittifoqi kabi tuzilmalar mintaqaviy integratsiyaning samarali modellari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Nazariy-metodologik asoslar "Mintaqaviy integratsiya" nazariyasi ilk bor J. Vayner tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u bojxona ittifoqi doirasida savdo yaratish va savdoni burish effektlarini ilmiy asoslagan [2].

Keyinchalik B.Balassa mintaqaviy integratsiya bosqichlarini tizimlashtirib, erkin savdo hududi, bojxona ittifoqi, umumiy bozor va iqtisodiy ittifoq konsepsiyalarini ilgari surgan [3]. P. Krugman va M. Obstfeld tadqiqotlarida integratsiya jarayonlari ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va farovonlikni ta'minlashga xizmat qilishi ta'kidlangan [4].

Ushbu nazariy yondashuvlar Turkiy davlatlar integratsiyasini tahlil qilishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Turkiy davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikning amaliy holati Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqalari geostrategik jihatdan Yevropa va Osiyoni bog'lovchi muhim iqtisodiy hudud hisoblanadi. Turkiy davlatlar – Turkiya, Ozarbayjon, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik umumiy tarixiy-madaniy meros va o'zaro

manfaatlarga asoslanadi. Turk Davlatlari Tashkiloti turkiy davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikka hamda ularning dunyo bilan iqtisodiy aloqalarida katta ahamiyatga ega. O'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik, turkiy davlatlar o'rtasida savdo hajmini oshirish hamda kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirish orqali iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash – Turk hamkorligining mustahkam asosi va asosiy yo'nalishi hisoblanadi. Kotibiyat, A'zo davlatlarning iqtisodiyot vazirliklari va boshqa tegishli muassasalari bilan yaqindan hamkorlikda turli mavzularda muntazam o'quv va tajriba almashish dasturlarini tashkil qiladi, investor-tadbirkorlar uchun texnik tashriflar uyushtirish, Biznes forumlar va Turk Savdo-sanoat palatasi (TSSP) yig'ilishlari, shuningdek, tadbirkorlar uchun davra suhbatlari orqali a'zo davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

TDT doirasidagi iqtisodiy hamkorlikning huquqiy asoslari quyidagi muhim hujjatlarga tayanadi:

2011-yil 21-oktabrda Qozog'istonning Olmaota shahrida imzolangan Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining Birinchi sammiti bayonoti;

2019-yil 17-mayda Ostona shahrida imzolangan Turkiy Savdo-sanoat palatalari ittifoqi (TSSP) nizomi;

2022-yil 11-noyabrda Samarqandda imzolangan TDT Davlat rahbarlari kengashining "Turkiy Investitsiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida"gi qarori;

2023-yil 16-mart kuni Anqarada imzolangan "Turkiy Investitsiya Jamg'armasini Tashkil Etish To'g'risidagi Bitim";

2022-yil 11-noyabr kuni Samarqandda qabul qilingan "Turkiy Davlatlar Tashkilotining Savdoni Yengillashtirish Strategiyasi";

2022-yil 11-noyabrda Samarqandda qabul qilingan "Qozog'iston Respublikasi Turkiston viloyatida Turon – Maxsus maqomga ega maxsus iqtisodiy hududni tashkil etish tashabbusi";

2021-yil 10-sentabrda Ozarbayjonning Boku shahrida imzolangan "Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashiga a'zo davlatlar hukumat organlari o'rtasida turli

xil iqtisodiy zonalar sohasida axborot va tajriba almashish bo'yicha Anglashuv Memorandumi";

2023-yil 3-noyabrda Ostona shahrida qabul qilingan "TDTga a'zo davlatlarning metrologiya sohasidagi tegishli tashkilotlari o'rtasidagi Hamkorlik Protokoli".

Bundan tashqari, Turkiy hamkorlikning mustahkam asosi bo'lgan iqtisodiy hamkorlik doirasida TDT a'zo davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan bir nechta amaliy loyihalar ustida ish olib bormoqda. 2024-yil 24-fevral kuni kuchga kirgan "Turkiy Investitsiya jamg'armasini tashkil etish to'g'risida bitim" hamda 2019-yil 17-may kuni Ostona shahrida TDT a'zo davlatlar Savdo-sanoat palatalari rahbarlari tomonidan imzolangan "Turkiy Savdo-sanoat palatasi (TSSP) Nizomi" TDT doirasida barqaror mexanizmlar sifatida faoliyat yuritishni boshlagan [5].

2024-yil ma'lumotlariga ko'ra, Turkiya YaIM hajmi 1,1 trln AQSh dollarini tashkil etib, dunyodagi yetakchi iqtisodiyotlar qatoriga kiradi. O'zbekiston YaIM hajmi 100 mlrd dollardan oshib, so'nggi yillarda barqaror o'sishni namoyon etmoqda. Ozarbayjon iqtisodiyoti esa asosan neft-gaz sohasiga tayanadi va YaIM hajmi taxminan 79 mlrd dollarga yetgan [6].

Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida savdo aylanmasi 2023-yilda 25 mlrd dollardan oshib, oxirgi besh yilda ikki baravarga yaqin o'sdi. Investitsiya sohasida ham hamkorlik faol rivojlanmoqda.

Turkiyaning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritgan to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari 2024-yilda 3,5 mlrd dollardan oshdi. Transport-logistika va raqamli integratsiya TRACECA va Transkaspiy xalqaro transport yo'lagi Turkiy davlatlar integratsiyasida strategik ahamiyatga ega. Ushbu yo'laklar tranzit salohiyatini oshirib, mintaqaning xalqaro savdodagi o'rnini mustahkamlaydi. Raqamli iqtisodiyot sohasida "Digital Turkey", "Digital Uzbekistan-2030" va "Innovation Roadmap 2025" dasturlari amalga oshirilmoqda.

Gabala shahrida bo'lib o'tgan Turkiy davlatlar tashkiloti sammitida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev turkiy mamlakatlar

o'rtasida ishonch, o'zaro qo'llab-quvvatlash va teng huquqli hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan keng ko'lamli tashabbuslarni ilgari surdi. Shu munosabat bilan mintaqaviy va global xavfsizlik masalalari bo'yicha yondashuvlarni muvofiqlashtirish maqsadida Samarqandda TDT tashqi ishlar vazirlari va maxsus xizmatlari rahbarlarining birinchi qo'shma uchrashuvini o'tkazish taklif qilindi. Bu tashabbus turkiy davlatlar diplomatiyasini yangi bosqichga olib chiqishga, xavfsizlik va barqarorlikka qaratilgan umumiy strategiyani ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Turkiy davlatlar siyosiy birligini mustahkamlash yo'lida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Strategik sheriklik, abadiy do'stlik va qardoshlik to'g'risidagi shartnomani tez fursatda qabul qilishni qo'llab-quvvatladi hamda 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun TDTni rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqishni taklif qildi. Bu strategiya doirasida a'zo mamlakatlar o'rtasida siyosiy hamkorlikni yanada mustahkamlash, iqtisodiy va gumanitar aloqalarni kengaytirish maqsad qilinadi.

Iqtisodiy sheriklik va amaliy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida Turkiy davlatlarning iqtisodiy sheriklik bo'yicha Doimiy kengashini tashkil etish va uning Loyiha ofisini Toshkentda joylashtirish taklif qilindi. Bu kengash mamlakatlar Bosh vazirlari o'rinbosarlari tomonidan boshqarilib, iqtisodiy loyihalar va investitsiya tashabbuslarini muvofiqlashtirishda markaziy rol o'ynaydi. Bu kengash mamlakatlar o'rtasida savdo va investitsiya aloqalarini mustahkamlaydi, qo'shma loyihalarni muvofiqlashtirish va amaliy hamkorlikni samarali boshqarish imkonini beradi.

O'zaro manfaatli aloqalarni kengaytirish uchun Yangi iqtisodiy imkoniyatlar makonini shakllantirish, Turkiy davlatlarning Sanoat alyansi, "Turkiy yashil yo'laklar" tizimi va "Yashil transformatsiya" konsorsiumini tashkil etish tashabbusi ilgari surildi. Ushbu tashabbuslar orqali mashinasozlik, neft-kimyo, farmasevtika, yengil sanoat va qurilish materiallari kabi strategik sohalarda qo'shma loyihalar rivojlantiriladi, qo'shma savdo hajmlari 2030-yilgacha 2 barobar ko'payishi prognoz qilinmoqda.

Qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda ham qator tashabbuslar ilgari surildi. Turkiy davlatlar organik mahsulotlar bo‘yicha Ekspertlar guruhini tashkil etish, sifatli va talab yuqori bo‘lgan mahsulotlarni yagona brend sifatida jahon bozoriga olib chiqish maqsad qilindi. BMTning Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, organik mahsulotlar bozori hozirgi kunda 225 milliard dollardan ortiq bo‘lib, har yili 10 foiz o‘sishi kutilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi sohasida ilmiy izlanishlar va seleksiya loyihalari hamda logistika aloqalarini kuchaytirish rejalashtirilgan.

Transport va logistika sohasida hamkorlikni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi. O‘rta koridorni rivojlantirish va uni Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston temir yo‘li hamda istiqbolli Transafg‘on yo‘lagi loyihalari bilan bog‘lash taklif qilindi. Bu loyihalar mintaqadagi xalqaro tranzit yo‘laklarini sezilarli darajada yuk yetkazib berish vaqtini va masofani qisqartirishga imkon beradi. Shu orqali O‘rta koridor raqobatbardoshligi bilan ajralib, biznes hamjamiyati uchun qulay va ishonchli muhit yaratiladi.

Raqamlashtirilgan bojxona tartiboti, optimal tranzit tariflari va zamonaviy infratuzilma esa mahalliy hamda xalqaro kompaniyalar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochadi. Bu loyihalar nafaqat mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlaydi, balki global savdo yo‘laklari bilan bog‘lanish va iqtisodiy integratsiyaning barqarorligini ta’minlaydi [6].

Mavjud barcha byurokratik to‘siqlarni bartaraf etishlik maqsadida Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog‘an O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va boshqa turkiy tilli mamlakatlar fuqarolarini ishga joylashtirish va kasbiy faoliyatni sezilarli darajada soddalashtirish to‘g‘risidagi farmonni imzoladi. Hujjatga ko‘ra, “Turkiy tilli xorijliklarning Turkiya hududida o‘z kasb va hunarmandchiligi bilan erkin shug‘ullanishi, shuningdek, davlat va xususiy muassasa, tashkilot va korxonalarda ishlash imkoniyati to‘g‘risida”gi qonunni qo‘llash to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirishlar kiritiladi.

Sodda qilib aytganda, yangi farmon amaldagi qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritib, turkiyzabon xorijliklarning Turkiyada ish topishini osonlashtiradi. Yangi

qoidalariga ko'ra, endilikda bu davlat fuqarolari an'anaviy ishlash ruxsatnomalarini olish uchun uzoq va murakkab byurokratik tartib-qoidalardan o'tmasdan Turkiyada ishlashlari mumkin bo'ladi. Ularga tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish, shuningdek, davlat va xususiy tashkilotlarda kasbiy amaliyot o'tash huquqi beriladi. Istisno faqat harbiy xizmat va xavfsizlik kuchlarida ishlashdir – bu hududlar xorijliklar uchun yopiqligicha qolmoqda.

Yashash va ishga joylashish uchun Turkiya fuqaroligi talabining bekor qilinishi farmonning asosiy jihatlaridan biridir. Bu qadam Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) doirasida ishchi kuchi harakatchanligini sezilarli darajada oshirishi va mamlakatlar o'rtasida chuqurroq integratsiya jarayonlarini osonlashtirishi mumkin. Qo'shma "Turkic Tech Network" loyihasi mintaqada innovatsion ekotizimni shakllantirishga xizmat qiladi. Muammolar va cheklovlar Mintaqaviy integratsiya jarayonida transport infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, bojxona tartib-taomillarining turlichaligi, valyuta xatarlari va texnologik nomutanosiblik kabi muammolar mavjud. Shuningdek, tashqi geosiyosiy omillar ham integratsiya jarayonlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Turkiy davlatlar, xususan Turkiya, Ozarbayjon, O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlikning nazariy-metodologik asoslari, amaliy holati va rivojlanish istiqbollari tahlili natijasida o'z yechimini kutayotgan muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha quyidagi takliflar va tavsiyalarni taqdim e'tish maqsadga muvofiqdir:

1. *Savdo integratsiyasini chuqurlashtirish*-Turkiy davlatlar o'rtasida tarif va notarif to'siqlarni qisqartirish, imtiyozli yoki erkin savdo to'g'risidagi kelishuvlar tarmog'ini kengaytirish hamda bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish maqsadga muvofiq.

2. *Iqtisodiy va huquqiy tartibga solishni uyg'unlashtirish* – texnik tartibga solish, sertifikatlash, soliq va investitsiya qonunchiligi sohalarida standartlarni yaqinlashtirish biznes muhitining barqaror va jozibador bo'lishiga xizmat qiladi.

3. *Transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish* – transport koridorlarini modernizatsiya qilish, port infratuzilmasini rivojlantirish va logistika jarayonlarini raqamlashtirishga qo'shma investitsiyalarni davom ettirish zarur.

4. *Investitsiyaviy hamkorlikni kengaytirish* – Turkiy investitsiya jamg'armasining rolini kuchaytirish, qo'shma korxonalar, sanoat zonalari va klasterlarni, ayniqsa, qayta ishlash sanoati, agrosanoat majmuasi va yuqori texnologiyalar sohasida qo'llab-quvvatlash muhimdir.

5. *Raqamli va "yashil" integratsiyani rivojlantirish* – raqamli iqtisodiyot, elektron savdo platformalari, qayta tiklanuvchi energiya manbalari va barqaror moliya sohalarida hamkorlik istiqbolli yo'nalishlardan hisoblanadi.

6. *Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida muvofiqlashuvni mustahkamlash* – qabul qilinayotgan qarorlarning amaliy samaradorligini oshirish, iqtisodiy institutlarning vakolatlarini kengaytirish va qo'shma loyihalar ijrosini tizimli monitoring qilish zarur.

Turkiy davlatlar misolida iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy integratsiya istiqbollari tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mazkur hudud katta, ammo hali to'liq ro'yobga chiqarilmagan iqtisodiy salohiyatga ega. Tarixiy-madaniy umumiylik, geografik yaqinlik, boy tabiiy resurslar hamda strategik tranzit joylashuv iqtisodiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirish uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

So'nggi yillarda Turkiy davlatlar tashkiloti doirasida institutsional hamkorlikning faollashuvi, savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi, qo'shma investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarning rivojlanishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, Transkaspiy transport yo'lagini shakllantirish, shuningdek, energetika, moliya va raqamli iqtisodiyot sohalaridagi hamkorlik muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, turkiy davlatlar o'rtasidagi ichki savdo va investitsiyalar hajmi ularning umumiy iqtisodiy salohiyatiga nisbatan hali ham past darajada qolmoqda. Mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasi va modellaridagi farqlar, normativ-huquqiy bazaning yetarlicha uyg'unlashmagani, tarif va notarif to'siqlar, infratuzilmaviy cheklovlar integratsiya jarayonlarini sekinlashtiruvchi asosiy

omillardan hisoblanadi. Shu bois, iqtisodiy integratsiyani yanada chuqurlashtirish barcha ishtirokchi davlatlardan kompleks va muvofiqlashtirilgan yondashuvni talab etadi.

Umuman olganda, ushbu chora-tadbirlarning amalga oshirilishi turkiy davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlik va mintaqaviy integratsiyani mustahkamlashga, shuningdek, global iqtisodiyotda raqobatbardoshlikni oshirish va uzoq muddatli barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. //nCa, 2025-yil 9-oktabr (O'zbekistonning Turkmanistondagi elchixonasi bilan hamkorlikda)
- 2.Viner J. The Customs Union Issue. – New York: Carnegie Endowment, 1950.
- 3.Balassa B. The Theory of Economic Integration. – London: Allen & Unwin, 1961.
4. Krugman P., Obstfeld M. International Economics: Theory and Policy. – Pearson Education, 2018.
- 5.Turkic States Organization. Annual Economic Report, 2023. UNCTAD. World Investment Report 2024.
- 6.World Bank. World Development Indicators, 2024.
7. M.Valiev, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati
- 8.OECD. Regional Integration and Economic Growth. – Paris, 2022.